Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319959

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

DEMOGRAFIK JARAYONLARNI STATISTIK TAHLIL QILISHDA XALQARO YONDASHUVLAR VA ULARNI HUDUDIY BOSHQARUV AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'LLARI

BEGALOVA DURDONA BAXODIROVNA
Milliy statistika qo'mitasi qoshidagi
Kadrlarni qayta tayyorlash va statistik tadqiqotlar
instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda demografik jarayonlarni statistik tahlil qilishda xalqaro yondashuvlarning mazmuni, ahamiyati va ularni hududiy boshqaruv amaliyotiga joriy etish imkoniyatlari yoritiladi. Bugungi kunda aholining tabiiy harakati, migratsiya jarayonlari, yosh-jins tarkibi, urbanizatsiya darajasi hamda hududlar kesimidagi demografik tafovutlarni chuqur o'rganish davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, demografik jarayonlarni baholashda an'anaviy statistik kuzatuvlar bilan bir qatorda aholini ro'yxatga olish, ma'muriy registrlar, geografik axborot tizimlari, raqamli platformalar va prognozlash usullaridan kompleks foydalanish samarali natija beradi. Tezisda ushbu yondashuvlarni O'zbekiston hududlari darajasida qo'llash, demografik monitoring tizimini takomillashtirish hamda hududiy boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: demografik jarayonlar, statistik tahlil, xalqaro yondashuvlar, hududiy boshqaruv, aholini ro'yxatga olish, demografik monitoring, migratsiya, tabiiy o'sish, hududiy tafovutlar.

Ushbu tadqiqot doirasida aholining tabiiy harakatini statistik jihatdan tahlil qilish bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganiladi. Xususan, xorijiy mamlakatlarda demografik jarayonlarni kuzatish, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarini baholashda qo'llanilayotgan zamonaviy metodlar, statistik indikatorlar hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda demografik o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning demografik vaziyat shakllanishidagi o'rni hamda xalqaro tajribalarni milliy demografik siyosatga moslashtirish imkoniyatlari yoritiladi.

Xorijiy davlatlarda demografik siyosatning mazmuni va yo'nalishlari mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi, aholining demografik tarkibi hamda mavjud demografik muammolariga qarab turlicha shakllangan. Demografik jarayonlar, jumladan tug'ilish, o'lim, migratsiya va aholining qarish jarayonlari har bir davlatning mehnat bozori, sog'liqni saqlash tizimi, ta'lim resurslari va iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir etuvchi muhim omillar hisoblanadi.

Published: 05.06.2026

Cite this article: Begalova Durdona Baxodirovna (2026). Demografik jarayonlarni statistik tahlil qilishda xalqaro yondashuvlar va ularni hududiy boshqaruv amaliyotiga joriy etish yo'llari. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319959

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Demografik vaziyatning xususiyatlaridan kelib chiqib, demografik siyosat odatda ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi: birinchisi, tug‘ilish darajasini oshirishga qaratilgan siyosat bo‘lib, bu asosan iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar uchun xosdir; ikkinchisi esa tug‘ilish darajasini tartibga solish yoki pasaytirishga qaratilgan bo‘lib, ko‘proq rivojlanayotgan davlatlar amaliyotida kuzatiladi [4,8].


Avvalo, rivojlangan G‘arb mamlakatlarida demografik siyosatning asosiy e’tibori tug‘ilish darajasini rag‘batlantirishga qaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlarga yo‘naltirilgan. Bunday tadbirlar qatoriga bolali oilalarga beriladigan pul subsidiyalari, yolg‘iz onalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash, homiladorlik va tug‘ruq ta’tillari, shuningdek, farzand tarbiyasi bilan bog‘liq ijtimoiy imtiyozlar kiradi. Ayrim mamlakatlarda esa tug‘ilish darajasini oshirish maqsadida homiladorlikni sun’iy ravishda to‘xtatish masalasiga nisbatan huquqiy cheklovlarni kuchaytirish bo‘yicha yondashuvlar ham muhokama qilinmoqda.

Demografik siyosatni izchil olib borish ayniqsa tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan va aholisi tez sur’atlarda ko‘payayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, demografik o‘zgarishlarga moslashish va ularni samarali boshqarish uchun har bir davlat o‘zining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlariga mos strategiyalarni ishlab chiqadi. Jumladan, ayrim Yevropa mamlakatlarida, xususan Bolgariya, Fransiya, Ruminiya, Vengriya, Chexoslovakiya va Germaniyada so‘nggi o‘n yilliklarda tug‘ilish darajasini oshirishga qaratilgan demografik siyosat faol amalga oshirilgan. Mazkur chora-tadbirlar oilalarda tug‘ilishning pasayish sur’atlarini sekinlashtirish, onalik mavqeini oshirish, kasallanish va o‘lim holatlarini kamaytirish, shuningdek bolali oilalarning moddiy farovonligini yaxshilashga xizmat qilgan.

Tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, XIX asrning dastlabki o‘n yilliklarida ayrim mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ta’sirida tug‘ilish darajasining sezilarli pasayishi kuzatila boshlagan. Mazkur holatga javoban davlatlar tomonidan milliy demografik siyosatni shakllantirish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha dastlabki urinishlar amalga oshirilgan. Bu esa demografik jarayonlarni nafaqat statistik kuzatish, balki ularni davlat siyosati darajasida tartibga solish zaruratini yuzaga keltirgan.

Grafik ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2026-yil yanvar holatiga ko‘ra dunyoda aholi soni bo‘yicha Hindiston va Xitoy mutlaq yetakchi o‘rinlarni egallab, ularning har birida aholi soni 1,4 mlrd kishidan oshgan. Keyingi o‘rinlarda AQSh, Indoneziya, Pokiston va Nigeriya kabi davlatlarning joylashgani demografik jarayonlarning faqat Osiyo emas, balki Afrika va Amerika mintaqalarida ham yuqori ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Pokiston, Nigeriya, Bangladesh va Efiopiya kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi sonining

yuqoriligi tug‘ilish, o‘lim, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarini doimiy statistik monitoring qilish zaruratini kuchaytiradi. Mazkur holat demografik siyosatni ishlab chiqishda har bir davlatning hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini hisobga olish muhimligini tasdiqlaydi. Demak, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, aholisi ko‘p mamlakatlarda demografik jarayonlarni samarali boshqarish aniq statistik ma’lumotlar, prognozlash usullari va hududiy boshqaruv qarorlariga tayangan holda amalga oshirilishi lozim.



1-rasm. Jahon aholisi sonining eng yirik davlatlar bo‘yicha taqqoslama tahlili, (2026-yil yanvar holatiga ko’ra)

Demografik jarayonlarning statistik tahlili va xalqaro tajriba natijalari shuni ko’rsatadiki, zamonaviy sharoitda demografik siyosatni umuman amalga oshirmaydigan mamlakatlar soni juda kam bo’lib, deyarli barcha davlatlar aholining tabiiy harakati, xususan tug’ilish va vafot etish ko’rsatkichlariga bevosita yoki bilvosita ta’sir etuvchi strategic choralarni qo’llamoqda. Statistik tahlillar shuni ko’rsatadiki, umumiy tug’ilish koeffisenti bir xil darajada bo’lgan sharoitlarda ham demografik siyosatning mazmuni va yo’nalishi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichi, resurs salohiyati, aholi yosh tarkibi hamda urbanizatsiya darajasiga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Shunga ko’ra, davlatlarning yondashuvlari quyidagicha tasniflanadi [2,5,6]:

1) tug’ilish darajasini oshirishga yo’naltirilgan davlatlar- umumiy tug’ilish koeffisenti ko’rsatkichini demografik xavfli darajada (odatda 1,5 va undan past) deb baholab, tug’ilish darajasini oshirishga qaratilgan iqtisodiy rag’batlantirish, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash va soliq imtiyozlari kabi choralarni qo’llaydi;

2) demografik o’sishni rag’batlantiruvchi mamlakatlar- siyosiy yoki iqtisodiy sabablar tufayli tug’ilish darajasini tabiiy rivojlanish oqimiga topshiradi va jarayonlarni faqat kuzatish bilan cheklanadi;

3) aholi sonining ko’payishini qo’llab-quvvatlovchi mamlakatlar- umumiy tug’ilish koeffisientini hozirgi darajada saqlab qolish uchun oilani qo’llab-quvvatlash, bandlik va ta’lim bilan bog’liq integratsiyalashgan siyosatlarni amalga oshiradi;

4) resurs muvozanatini saqlash maqsadida aholining ko’payishini tartibga soluvchi mamlakatlar- aholi sonining keskin o’sishi natijasida yuzaga keladigan resurs tanqisligi va ekologik bosimni kamaytirish maqsadida aholining ko’payishini tartibga soluvchi davlatlar oilani rejalashtirish dasturlari, tu’ilishni cheklovchi qonuniy va iqtisodiy mexanizmlar hamda ma’rifiy choralarni qo’llaydi. Ushbu mamlakatlar siyosiy yoki iqtisodiy sabablar tufayli tug’ilish ko’rsatkichlarini tabiiy muvozanatga qo’yib beradi va faqat monitoring bilan chegaralanadi.

Jadval ma’lumotlarini statistik jihatdan tahlil qilish MDH davlatlarida tug‘ilish koeffitsienti turlicha yo‘nalishda o‘zgarganini ko‘rsatadi (1-jadval). 2010–2026-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda tug‘ilish koeffitsienti 22,7‰ dan 24,6‰ ga oshib, 1,9‰ ga ko‘paygan. Aksincha, Tojikistonda ushbu ko‘rsatkich 29,4‰ dan 24,5‰ ga tushib, 4,9‰ ga, Qirg‘izistonda esa 27,1‰ dan 20,5‰ ga kamayib, 6,6‰ ga pasaygan. Turkmanistonda tug‘ilish koeffitsienti 22,0‰ dan 20,0‰ ga, Qozog‘istonda esa 22,5‰ dan 19,0‰ ga kamaygan bo‘lib, pasayish mos ravishda 2,0‰ va 3,5‰ ni tashkil etgan. Ozarbayjonda eng sezilarli pasayishlardan biri kuzatilib, ko‘rsatkich 18,5‰ dan 11,6‰ ga kamaygan, ya’ni 6,9‰ ga pasaygan. Rossiyada tug‘ilish koeffitsienti 12,5‰ dan 8,6‰ ga, Belarusda esa 11,4‰ dan 6,9‰ ga tushgan bo‘lib, bu mamlakatlarda demografik qarish va reproduktiv yoshdagi aholi ulushining qisqarishi kuchayganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, MDH davlatlari bo‘yicha faqat O‘zbekistonda ijobiy o‘sish qayd etilgan, qolgan davlatlarda esa tug‘ilish koeffitsientining pasayishi demografik siyosatni hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar asosida qayta baholash zaruratini ko‘rsatadi.

1-jadval

MDH davlatlarida tug‘ilish koeffitsientining o‘zgarish dinamikasi


2026-yil 2010-yilga

T/r	Davlat	2010	2015	2026	nisbatan o’sish sur’ati,+;-
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*
1	O‘zbekiston	22,7	23,5	24,6	+1,9
2	Tojikiston	29,4	29,3	24,5	-4,9
3	Qirg‘iziston	27,1	27,4	20,5	-6,6

4	Turkmaniston	22,0	22,1	20,0	-2,0
5	Qozog‘iston	22,5	22,7	19,0	-3,5
6	Armaniston	14,7	13,9	11,8	-2,9
7	Ozarbayjon	18,5	16,5	11,6	-6,9
8	Moldova	11,8	10,5	10,4	-1,4
9	Rossiya	12,5	13,3	8,6	-3,9
10	Belarus	11,4	12,5	6,9	-4,5

Ushbu grafik MDH davlatlarida 2026-yil holatiga ko‘ra vafot etish koeffitsientining mamlakatlar kesimidagi farqlanishini yaqqol ko‘rsatadi (2-rasm). Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, eng yuqori vafot etish koeffitsienti Moldovada 14,1‰, Belarusda 13,3‰ va Rossiyada 13,0‰ darajasida qayd etilgan bo‘lib, bu davlatlarda aholining qarish jarayoni va tabiiy kamayish xavfi nisbatan yuqori ekanligini anglatadi. Armanistonda ushbu ko‘rsatkich 9,5‰ ni tashkil etib, u yuqori va o‘rta darajadagi davlatlar oralig‘ida joylashgan. Ozarbayjon va Qozog‘istonda vafot etish koeffitsienti mos ravishda 6,9‰ va 6,8‰ bo‘lib, MDH bo‘yicha o‘rtacha pastroq darajaga yaqinlashadi. O‘zbekiston va Qirg‘izistonda ko‘rsatkich bir xil — 6,1‰, Turkmanistonda esa 6,0‰ bo‘lib, bu Markaziy Osiyo davlatlarida aholi yosh tarkibining nisbatan qulayligini ko‘rsatadi. Eng past ko‘rsatkich Tojikistonda 4,6‰ darajasida kuzatilgan, bu esa mamlakatda yosh aholi ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi. Umuman olganda, grafik MDH davlatlarida vafot etish darajasi bir xil emasligini, bu tafovutlar esa aholining yosh tarkibi, sog‘liqni saqlash tizimi, urbanizatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —



2-rasm. MDH davlatlarida vafot etish koeffitsientining hududiy-statistik farqlanishi, 2026-yil, ‰

Jahon tajribasi tahlili shuni ko’rsatadiki, aholining tabiiy harakatini statistik o’rganish nafaqat demografik jarayonlarni monitoring qilish va ularning dinamikasini baholash, balki davlatlarning uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda ham muhim ilmiy- amaliy ahamiyat kasb etadi. So’nggi o’n yilliklar mobaynida global miqyosda kuzatilayotgan tug’ilish ko’rsatkichlarining izchil pasayishi, o’rtacha umr davomiyligining ortishi hamda qarilik yoshidagi aholining ulushi ko’payishi natijasida demografik tuzilma sezilarli darajada o’rgarib, ko’plab mamlakatlarda ijtimoiy- iqtisodiy barqarorlikka bevosiya ta’sir ko’rsatmoqda.

Zamonaviy demografik tadqiqotlar jarayonida katta hamjdagi ma’lumotlar (big data), geoinformatsion tizimlar va real vaqt rejimidagi monitoring texnologiyalaridan foydalanish demografik jarayonlarni chuqur va kompleks o’rganishga imkon bermoqda. Bunday yondashuvlar aholining tabiiy harakati tug’ilish, o’lim va migratsiya oqimlari dinamikasini hududiy, vaqtinchalik va strukturaviy kesimlarda yanada aniqlik bilan tahlil qilish, shuningdek, demorgafik o’zgarishlarning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy determinantalarini baholash imkonini yaratadi. Natijada, bu metodologiya asosida ishlab chiqilgan demografik prognozlar nafaqat statistik aniqlik, balki hududiy va strategik moslashuvchanlikni ham ta’minlab, ilmiy asoslangan demografik siyosat, uzoq muddatli rejalashtirish va resuurslarni optimal taqsimlash uchun mustahkam asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ–6079-son, 2020-yil 5-oktabr. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti

2. Begalov B.A. , Yuldoshev Z.T. , Begalova.D.B. Aholi demografiyasi statistikasi. O’quv qo’llanma “Umid design- 2024” B.-35

3. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X- Demografiya . O’quv qo’llanma. Toshkent-2011. B.79

4. Максаковский В.П. Географическая картина мира. Глобальные проблемы человечества. Демографическая политика. М.:Дрофа, 2009. 480 с.

5. Begalova D.B. “The role of information systems in statistical analysis of socio- economic development of regions” International Consortium on Academic, Trends on Education and Science, April 3-4, 2021 Hosted from London, England P. 58-62

6. Begalova D.B.- “O’zbekiston Respublikasi aholisining tabiiy harakatini statistik tadqiq etish” –magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent-2024 B.67

7. Demografiya.uz. (2025). Tug‘ilishni tartibga solish. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Demografiya portali. Olingan manzil: https://demografiya.uz/wiki/tug-ilishni-tartibga-solish

8. www.stat.uz- O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi rasmiy sayti

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —